

YANGI O'ZBEKISTONDA KADRLAR TAYYORLASHDA KONSTITUTSIYAGA KIRITILGAN O'ZGARISH HAMDA QO'SHIMCHALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Turopova Nigora Xolmurod qizi

Termiz Davlat Universiteti

nturopova@tersu.uz

Norto'raev Raxmonlani Baxromqul o'g'li

Termiz Davlat Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10940287>

Annotatsiya: Yangi O'zbekistonda kadrlar tayyorlashda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan bevosita bog'liq. Konstitutsiyaning kadrlar tayyorlash yo'nalishlarini qamrab olgan bob va moddalarida sezilarli o'zgarishlar qilinganligi, maqolada to'liq ochib berildi. Maqola davomida Yangi O'zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimida qo'llanilayotgan yangi yondashuvlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, kadrlar tayyorlash, Konstitutsiya, o'zgartirish, qo'shimchalar, san'at, modda, o'qituvchi, xodimlar, qo'shimcha vazifalar.

Аннотация: Это напрямую связано с изменениями и дополнениями, внесенными в Конституцию в сфере подготовки кадров в Новом Узбекистане. В статье полностью раскрыто, что в главы и статьи Конституции, касающиеся подготовки кадров, внесены существенные изменения. В статье анализируются новые подходы, используемые в системе подготовки кадров в Новом Узбекистане.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, подготовка кадров, Конституция, изменение, дополнения, статья, содержание, педагог, работники, дополнительные задачи.

Annotation: It is directly related to the changes and additions made to the Constitution in training personnel in New Uzbekistan. The article fully disclosed that significant changes were made in the chapters and articles of the Constitution covering personnel training. The article analyzes the new approaches used in personnel training system in New Uzbekistan.

Key words: New Uzbekistan, personnel training, Constitution, change, additions, art, substance, teacher, employees, additional duties.

Hozirgi kunda yetakchi mamlakatlar kadrlar tayyorlash siyosatida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning eng samarali shakllari, vositalari Konstitutsiyada kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalardan kelib chiqib ishlab chiqilmoqda. Har qanday mamlakat qudratini shu mintaqada shakllanayotgan yetuk kadrlar salohiyati belgilab beradi.

Shu o'rinda Konstitutsiyada kiritilgan o'zgarishlar haqida to'xtalib o'tsak; endi kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi paxtaga yoki ko'cha tozalash va boshqa ishlarga hech kimni majbur qila olmaydi, bolalarni darsdan chiqarib, boshqa ishlarga jalb etishga jur'at eta olmaydi

— majburiy va bolalar mehnati qat'iy taqiqlanmoqda (44-modda);

Shuningdek endi farzandimizga bog'cha topolmaydigan vaziyat yoki oliy ta'limga davlat grantlari qisqarib yoki yo'q bo'lib ketish xavfi ortda qolmoqda — davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishi, maktabgacha ta'lim va tarbiya davlat nazoratida ekanligi, fuqarolar tanlov asosida bepul oliy ma'lumot olishga haqliligi aniq belgilab qo'yilmoqda (50 va 51-moddalar);

Bundan tashqari endi har qanday idora yoki hokimlik oliy ta'lim tashkilotlari ishiga aralasha olmaydi — oliy ta'lim tashkilotlari akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga egaligi muhrlanmoqda (51-modda)¹;

Tarixdan ma'lumki, ko'pgina davlatlarda Konstitutsiya qabul qilishda kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Konstitutsiyaviy komissiya bu safar yangicha yo'ldan borib, avval xalqimizning fikri, takliflari o'rganildi, shundan so'ng Konstitutsiya loyihasi tayyorlandi. 2022 yil 20 iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashdi va Konstitutsiyaga kiritilayotgan o'zgarish va qo'shimchalar haqida to'xtalib, jumladan kadrlar tayyorlash masalasini dolzarbligini alohida e'tibor qaratgan edi. O'zbekiston tarixida yagona muallifi va manbai bevosita xalq bo'lgan, xalqni o'zi imzo chekadigan birinchi Konstitutsiya shu bo'ladi, u davlat rahbari tomonidan imzolanmaydi.

2023 yil 1 mayda qabul qilingan Yangi Konstitutsiyada haqiqatan ham, kadrlar tayyorlash masalasi jumladan o'qituvchilarning huquq va manfaatlari hisobga olingan. Xususan, kadrlar mehnatiga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib yashashini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanishi, davlat kadrlarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish hamda kambag'allikni qisqartirish choralarini ko'rishi, kadrlarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etishi, har kim ishsizlikda ijtimoiy ta'minot huquqiga egaligi, har bir kadrning uy-joyli bo'lish huquqi, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasiga olinishi, davlat kadrlarning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratishi shular jumlasidandir.

Bizning nazarimizda davlat yosh kadrlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlashi, ularning ta'lim olish, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilanmoqda. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayol kadrlarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi mustahkamlanganligi naqadar muhim yo'nalishlar qamrab olinganligini ko'rsatib turibdi.

Jadid bobolarimizdan Mahmudxo'ja Behbudiy o'z asarlarida "Har bir millat, eng avval makotibi ibtidoiyasini zamoncha isloh etib, ko'paytirmaguncha taraqqiy yo'lig'a kirub, madaniyatdan foydalanmas" degan g'oyani ilgari surgan edi. Yangilangan Konstitutsiyaning eng muhim jihatlaridan biri ilm-fanni, ta'limni rivojlantirishga xizmat qiluvchi kadrlar tayyorlash masalasiga katta e'tibor berilgani bilan izohlanadi. Ta'lim va ilm-fanga oid normalar qariyb ikki baravar ko'paydi. "Ta'lim" degan so'zning o'zi 20 marta qo'llanilyapti, amaldagi Konstitutsiyamizda faqat 2 martagina ishlatilgan edi xolos. Davlat uzluksiz ta'lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlashi, davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish mustahkamlandi².

Singapurning sobiq bosh vaziri Li Kuan Yu aytgan ekan, "men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim, davlat budjetini ta'lim sohasida kadrlar tayyorlashga yo'naltirdim, muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko'tardim. Davlatdagi

¹ O'zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi. // Xalq so'zi, 2023 yil, 2 may soni.

² O'zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi. // Xalq so'zi, 2023 yil, 2 may soni.

mo'jizalarni amalga oshirgan insonlar muallim kadrlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan kamtarin avlodni yetishtirib chiqardilar". Shu ma'noda yangilangan Konstitutsiyamizda o'qituvchi kadrning mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etilayotganligi, davlat o'qituvchi kadrlarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi konstitutsiyaviy kafolatlanayotganligi taraqqiyotimizning asosini tashkil etadi. Shuningdek, Konstitutsiyada davlat bepul boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlashi belgilandi. Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanishi mustahkamlandi.

Yangilangan Konstitutsiyaga asosan davlat organlari tomonidan kadrlarga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish kafolatlandi. Davlat organlarining kadrlar bilan o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi. Har bir kadr davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga egaligi konstitutsiyaviy kafolatlandi.

Shu o'rinda bir mulohazaga etiborni qaratsak. Bizni milliy g'urur va milliy iftixori bor har bir sohaning yetuk kadrlari birlashtirib turadi, bizni ularning ham yaxshi kuni, ham qayg'usi birlashtirib turadi. Tahlikali, murakkab zamonda yashamoqdamiz, atrof notinch, ayrilganni ayiq yer, bo'linganni bo'ri yer deb xalqimiz bejizga aytmagan. Bu jihatdan, umumiy va individual tajribalar qay yo'sinda tadqiq qilinayapti, shu sohada milliy meros va qadriyatlarni hozirgi davr bilan bog'lash, yetuk kadrlar tayyorlash masalasi, barcha sohalarda kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishga doir nazariyalar, mavzuga xos tushunchalarni ilmiy-nazariy ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ayni paytda rivojlangan mamlakatlarning kadrlar tayyorlash bilan bog'lik tajribalarini o'rganish, tahlil etish, maqbul jixatlarini milliy ta'lim tizimiga joriy etish uchun tavsiyalar ishlab chikish, yangilangan Konstitutsiyada davlatimizning yangi va demokratik tamoyillar asosida kadrlar tayyorlash texnologiyalari, mexanizmlari, uslublariga oid tajribalarni takomillashtirib borish ham aniq va yaqqol ochib berildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev, "...kadrlar tayyorlashga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart" -deb ta'kidlaganligi ushbu sohada hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar mavjudligini bildiradi.

Davlatimiz rahbarining, "...O'zbekiston ilmi-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lish shart" ³ -deya ta'kidlaganidan ko'rinib turibdiki, yetuk kadrlarga ehtiyoj yildan-yilga ortib bormoqda. Mamlakatimiz mustaqilligining keyingi yillarida rivojlanishning shiddatli tus olayotgani va yurtimiz bo'ylab amalga oshirilayotgan o'lgan islohotlar davrida yetuk kadrlar tayyorlash tizimida xalqaro tajribalar bilan bir qatorda milliy madaniy xususiyatlardan kelib chiqib yondashishni davrning o'zi taqozo etmoqda. Bugun xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, bo'lajak har bir kadrning yagona Vatan baxt- saodati uchun

³ Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017, - 12 b.

doimo mas'uliyat sezib yashashiga, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli komil insonlarni shakllantirish, ularni yurtimizdagi ulkan bunyodkorlik ishlariga tomoshabin emas, faol ishtirokchisi bo'lishga da'vat etish ehtiyoji, o'z navbatida fidoyilik, zamonaviy bilimlarga chanqoqlik hissini yuksaltirish xususiyatlarini alohida tadqiq etish zarurati tug'diradi.

Ma'lumki, Yangilangan Konstitutsiyada O'zbekiston davlati faoliyatining eng ustuvor strategik yunalishlaridan biri barkamol avlodni tarbiyalashda kadrlar tayyorlash masalasi alohida e'tirof etildi. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning uz ijodiy va intellektual salohiyatini ruyobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit- qizlarini XXI-asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan barkamol shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart- sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bu boradagi faoliyatning strategik maqsadi hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning har bir nutqida yurtimizni xar tomonlama rivojlantirishda barchamizning shijoatli mehnatimiz, harakatimizga bog'lik degan fikrni ilgari suradilar. Biz bugun hayotimizning va istiqbolimizning qaysi yo'nalishi haqida gapirmaylik, hamma narsa kadrlarga va yana kadrlarga borib taqaladi. Bu masalani ijobiy hal etmasdan turib, amalda oldimizga qo'yan strategik maqsadlarimizga erishib bo'lmaydi. Qolaversa, barchamiz ne-ne orzu niyatlar bilan Referendum orqali ovoz berib tasdiqlaganimiz Yangi Konstitutsiyada yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning oldingi va hozirgi davri bilan o'zaro solishtirish, tahlil qilish, samarali usul va muqobil yechimlarni ishlab chiqish orqaligina amalga oshiriladi. Bunda kadrlar tayyorlash sohasida faoliyat olib borayotgan rahbarlardan tortib, kichik xodimigacha o'z vazifasini sidqidildan bajarish yo'lida shijoat ko'rsatishni talab etadi⁴.

Yangi qabul qilingan Konstitutsiyada kadrlar tayyorlash tizimida kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar sohada ko'zga tashlanayotgan muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Yetuk kadrlar tayyorlash har doim ham doimo harakatda bo'lgan dinamik jarayon bo'lib, u uch jihatni o'z ichiga oladi. To'liqroq aytganda, u o'zida bilish, baholash, hulq-atvor nuqtai-nazarlarini birlashtiradi. Ushbu tomonlarning o'zi ham o'z navbatida bir necha bosqichlardan iborat. Chunonchi, yetuk mutaxassis kadrlar bilish bosqichi o'zida bilimlar, islohotlardan xabardorlik, onglik kabi sifatlarni mujassamlashtirsa, baholash bosqichi mulohazalar, qadriyatlar, normalardan tashkil topadi. Hulq-atvor bosqichi yetuk kadrlar tayyorlashda ijtimoiylik dasturlarda asosan amalga oshiriladigan faollik, vatanparvarlik, millatparvarlik, baynalmilalchilik, millatlararo munosabatlar kabi xususiyatlarni o'zida mujassam qiladi⁵.

Shuningdek Yangi Konstitutsiyada kadrlar tayyorlash tizimidagi o'zgarishlar doirasida uch asosiy paradigмага e'tibor qaratish lozim:

1. Yetuk mutaxassis kadrlar - hokimiyat va tuzum, ijtimoiy jarayonlarni boshqarishning asosini belgilovchi g'oyalar, qarashlar, me'yorlar va qoidalar, davlat tuzilishi va uning siyosiy tizimini barkarorlashtirishda, turli siyosiy muammolarni hal etishda ilmiy mushohadalari bilan yondoshmoqlilari zarur.

⁴ M.I.Raxmatillaeva, D.Yu.Ismailova Yoshlar tarbiyasining milliy-ma'naviy xususiyatlari va istiqbollari. "XXI asr - intellektual yoshlar asri" Respublika ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari (2023 yil 30 mart). Toshkent: O'ZR FA, 2023. 208 b.

⁵ B.Umurzakov, G.Abdurahmanova, S.Xolmuratov. Korxonada kadrlar siyosati. Toshkent. ToshDIU. 2023. - 190 b.

2. Yetuk mutaxassis kadrlar madaniyatining hulq-atvor jihati eng avvalo, ijtimoiy-siyosiy faollikni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy faollik bo'lmas ekan, mutaxassis madaniyati xam shakllanmaydi.

3. Har tomonlama barkamol kadrni shakllantirish jarayonini jadallashtirishda an'analar ya'ni bir avlod erishgan yutuqlarni o'zida saqlab qoladi, boyitadi va ikkinchi avlodga yetkazadi. Kadrlar tizimini shakllantirish va ularni qayta tayyorlash mexanizmi izchilligi davriy ko'nikmalar asosida davom ettirilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda Yangi O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida kadrlar tayyorlash tizimidagi o'zgarishlardan biz yapon mo'jizasi, koreys tabiati kabi iqtisodiy o'sish namunalarini kutayotgan ekanmiz, avvalo kadrlar qalbida millat tafakkurini tubdan taraqqiy ettirishga asosiy urg'u berishimiz lozimligini davrning o'zi toqozo qilmoqda. Yurtimizda kadrlar tayyorlash sohasida Yangi Konstitutsiyadan kelib chiqib soha oldidagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha strategik yechimlar bosqichma-bosqich ishlab chiqarishga joriy etilishi boshlab yuborildi. Asosiysi, kadrlar tayyorlashda qarashlarimizni ham o'zgartirish, qolaversa, o'sib kelayotgan avlod ongida "shu vatan, shu yurt ravnaqi uchun barchamiz mas'ul" degan g'oya ostida birlashish, jipslashishni targ'ib qilish orqali biz ko'zlagan maqsadlarimizga yetishimiz shubhasizdir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasining Yangi Konstitutsiyasi. // Xalq so'zi, 2023 yil, 2 may soni.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017, - 12 b.
3. M.I.Raxmatillaeva, D.Yu.Ismailova Yoshlar tarbiyasining milliy- ma'naviy xususiyatlari va istiqbollari. "XXI asr - intellektual yoshlar asri" Respublika ilmiy va ilmiy-texnik anjuman materiallari (2023 yil 30 mart). Toshkent: O'zR FA, 2023. 208 b.
4. B.Umurzakov, G.Abdurahmanova, S.Xolmuratov. Korxonada kadrlar siyosati. Toshkent. ToshDIU. 2023. - 190 b.
5. Ashurova F. Xodimlar bilan ishlashda qo'l keluvchi 4 maslahat. Qarang: <https://www.norma.uz/>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/23/digitalization/>
7. Bekberganova M. Tashkilotda kadrlarni rivojlantirish tizimini takomillashtirish. Toshkent - 2023. O'zMU.
8. Turopova N. O 'zbekiston moliya tizimida mahalliy moliyaning o 'ziga xos xususiyatlari. - 2023.
9. Буранова Л. В. и др. Зарубежный опыт ипотечного жилищного кредитования //O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. - 2023. - T. 2. - №. 19. - C. 437-345.